

**“TARJUMON” ASARINING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI****Temirova Kamola Baxtiyor qizi**

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti.

[kamolatemirova28@gmail.ru](mailto:kamolatemirova28@gmail.ru)<https://doi.org/10.5281/zenodo.14558845>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turkiy xalqlarning adabiy tillari tarixi va shakllanishini o‘rganishda muhim manbalardan biri, arab tilida yozilgan filologik asar – XIV asr obidasi “Tarjumon” asari tahlilga tortilgan. Shuningdek, “Tarjumon” asarining leksikografiyaga qo‘shgan hissasi va asarda keltirilgan leksik birliklar, jumladan, gastronomik birliklarning leksikografik tadqiqi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiy xalqlar, “Tarjumon” asari, gastronomik birliklar, oziq-ovqat, taom, ichimlik va sutlar haqida, daraxtlar, mevalar, polizchilik, bog‘dorchilikka oid so‘zlar, ekinlar va don mahsulotlari nomlari va hokazo.

**LEXICOGRAPHIC STUDY OF THE WORK "TRANSLATER"**

**Abstract.** This article analyzes one of the important sources in the study of the history and formation of the literary languages of the Turkic peoples, the 14th-century philological work "The Interpreter" written in Arabic. It also provides feedback on the contribution of the work "The Interpreter" to lexicography and the lexicographical study of lexical units, including gastronomic units, presented in the work.

**Keywords:** Turkic peoples, the work "Tarjumon", gastronomic units, about food, food, drinks and milk, words related to trees, fruits, melon growing, gardening, names of crops and cereals, etc.

**ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ПЕРЕВОД»**

**Аннотация.** В данной статье анализируется один из важных источников для изучения истории и формирования литературных языков тюркских народов, филологический труд, написанный на арабском языке, - памятник XIV века «Тарджумон». Также комментируется вклад труда «Тарджумон» в лексикографию и лексикографическое исследование представленных в работе лексических единиц, в том числе гастрономических.

**Ключевые слова:** тюркские народы, произведение «Тарджумон», гастрономические единицы, о еде, еде, питье и молоке, слова о деревьях, плодах, полиции, садоводстве, названиях культур и зерновых продуктов и др.

Turkiy tillarning rivojidadagi umumiy va xususiy jarayonlarni sinchiklab o‘rganish ko‘plab yozma yodgorliklar bo‘yicha filologik tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

Turkiy xalqlar adabiy tillar shakllanish tarixini tadqiq qilishda muhim manbalardan biri turkiy tillarga bag'ishlangan arabcha yozilgan filologik asarlardir.

Turkiy xalqlarning adabiy tillari tarixi shakllanishini o'rganishda muhim manbalardan biri, arab tilida yozilgan filologik asarlardir. Gollandiyaning Leyden kutubxonasida saqlanayotgan XIV asr obidasi "Tarjumon turkiy va ajamiy va mo'g'uliy" (qisqartirilgan "Tarjumon") asari shular jumlasidan.

"Tarjumon" haqidagi dastlabki xabar sharqshunos M.T.Xoutsma tomonidan berilgan. U turkologiyada birinchi bo'lib, lotin alifbosi asosida nemis tilga tarjima va transkripsiyasi bilan turkiy so'zlarning lug'atini tuzgan edi. Olim o'z nashrida qo'lyozmaning mufassil tavsifi, yaratilish tarixi va davri, asarning mazmuni, asarda qamrab olingan so'zlar va tillar haqida ma'lumot keltirgan<sup>1</sup>.

Asar oxirida muallifning qalamiga mansub bir turkcha hikoyaning boshlanishi bor. Yozuv e'tiborsizlik bilan bitilgan, ba'zi joylarini o'qish ancha qiyin. Turkologiya fani lug'atning muallifi haqida aniq ma'lumotga ega emas. Yodgorlikning material qismi uning xalq so'zlashuv tili asosida tuzilganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham M.T.Xoutsma asarni "ustoz shogirdiga murojaat qiladigan kollegial daftar deb hisoblaydi"<sup>2</sup>.

Asar kirishdan tashqari to'rt katta qismga bo'lingan. Birinchi qism "Faqat ismlar haqida" deb nomlangan bo'lib, 26 fasldan iborat. Ba'zi fasllar bir necha mayda bo'limlarni o'z ichiga oladi.

A.K.Qurishjonov fasllar ichidagi kichik bo'limlarni ham hisobga olib, asarni 41 fasldan iborat deb ko'rsatgan<sup>3</sup>.

Ikkinchi qism. "Fe'l masdari va buyruq mayli haqida";

Uchinchi qism. So'zlarning turlanishi va fe'llarning tuslanishi haqida.

To'rtinchi qism. So'zlarning ishlatilishi va boshqa muhim narsalar haqida.

Yodgorlik bitilgan joyda turkiy xalqlarning qipchoq, o'g'uz, turkmanlar yashaganligi tufayli asarda ularning til xususiyatlari aks etgan. Asar muallifi o'z kitobida ko'proq qipchoq tiliga e'tibor berganligini ta'kidlab o'tadi. Asarning lug'at qismida yo'l-yo'lakay o'g'uz tili yoki turkman tiliga oid leksik qatlamlar sharh qilinadi<sup>4</sup>.

"Tarjumon" dagi I qism quyidagi fasllarni o'z ichiga oladi: *Kishi nomlari; astronomik nomlar; geografik nomlar; hayvon atamaları; qarindosh-urug' bildiruvchi so'zlar; inson a'zolariga xos so'zlar; foydali qazilmalar; polizchilik, bog'dorchilikka oid so'zlar; kiyim-kechak*

<sup>1</sup> Tarjumon- XIV asr ʻezma obidasi". Toshkent, Fan. – 1980. 3-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba: 4-bet.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Tarjumon- XIV asr ʻezma obidasi". Toshkent, Fan. – 1980. 6-bet

<sup>4</sup> O'sha manba: 5-bet

va gazmollar; oziq-ovqat va ichimlik nomlari; harbiy anjomlar; cholg'u asbob nomlari va hokazolar.

Tadqiqotimiz doirasida asarning I qismida ayrim fasllar gastronomiyaga doir birliklarga qaratilganining guvohi bo'ldik. Jumladan, I qism 4-faslda *daraxtlar, mevalar va boshqa o'simliklar (fasl ichida yana bir bo'lim: sabzavot, poliz o'simliklari, o't-o'lan va ularga yaqin narsalar)* haqida; beshinchi fasl: *ekinlar va donlar haqida*; o'n uchinchi fasl: *oziq-ovqat, taom, ichimlik va sutlar haqida*.

Asar arab grammatik qonun-qoidalariga asoslangan. Fasllardan avval arab so'zi va unga turkiy ekvivalent berilgan.

Har bir fasldan o'rin olgan gastronomik birliklarning lug'atda ifodalanishi haqida fikr yuritamiz. I qism 4-faslda *daraxtlar, mevalar, sabzavot, poliz o'simliklari, o't-o'lan va ularga yaqin narsalar haqida*. Umuman ho'l mevalar asarda yemish leksemasi ostida birlashgan: *alma*-olma; *kertme*-nok, uni armut ham deyiladi, bunisi turkmancha; *saru o'rik* – o'rik, bu turkmanchadir, uni *zardalu* ham deyiladi. Bu so'z ham turkmancha bo'lib, fors tilidan olingan; *ayva*-behi, turkmancha; *nar*-anor, bu turkmanchadir, asli fors tilidagi *anar* so'zidan olingan; *borla*-uzum, uni *yuzum* ham deyiladi; *salqum* -uzum va boshqa mevalarning boshi, shingili; *qiraq*-g'ora, xom uzum; *injur*-anjir; *qurma*-xurmo, asli fors tilidagi xurma so'zidan olingan; *bayam*-bodom, asli forscha badamdandir; *qoz*-yong'oq; *yikde*-jiyda; pista va funduk kabi barcha chaqiladigan mevalar *chetleyuk* deb nomlangan.

**Polizchilik, bog'dorchilikka oid so'zlar:** *qabaq*-qovoq; *qavun*-qovun; *qarbiz*-tarvuz; *elestek*-bodring; *seklebe*-lavlagi; *erenke*-sholg'om; *achi erenke*-turp, buni *tarma* ham deyiladi; *chemer*-sabzi, buni *keshur* ham deyiladi, bunisi turkmancha; *yova* -piyoz, buni *sog'an* ham deyiladi, keyingisi mashhurroq; *sarimsaq*-sarimsoq; *gulab*-gulob, turkmancha.(35-bet).

**Ekinlar va donlar haqida** 5-faslda ma'lumot qoldirilgan: *burchaq*-no'xat; "Attuhfa" da *noqut* (*no'xat*) shaklida keltirilgan bo'lib, turkmanlar labla bu deydilar, degan ibora bor (Attuhfa, 46); *merjimek*-yosmiq, turkmancha; *tuturg'an*-gurunch, sholi; "Attuhfa" da ham *tuturg'an*, "Devonda" tuturqon shaklida berilgan.

**Oziq-ovqat, taom, ichimlik va sutlar haqida** o'n uchinchi faslda fikr yuritilgan. *Ash*-osh, taom, biror odam ovqatlanayotgan yoki ichayotgan bo'lsa, *ash bolsun*, ya'ni hazm bo'lsin deyiladi. Yana bironing ot yoki boshqa ulovini haydab o'zib ketishini istasang ham *ash* deysan. "Devon" da **a: š (ash)** tarzida berilgan (DLT. 45); *Moyin*-sho'rva, shorba deb ham yuritiladi, u forscha bo'lib, tuzlashdan olingan. DLT da sho'rva *mün (mun)* shaklida berilgan (DLT, 139); *Et*-et, go'sht; *bishmish et*-pishirilgan go'sht, *kesek et*-parcha go'sht; *soklunchi* -kabob qilib pishirilgan go'sht; *sokelmish et*-tilishlangan go'sht; *qavurma*-qovurma, *yag'*-yog'; *quyruq yag'i* - quyruq yog'i, dumba; *chiket*-xomgo'sht; *etmek*-non, DLT da ham non *etmāk* (54) deyilgan; go'sht xil-xil pishib,

suylari ayrilib ketguncha qaynatilib, so'ng yeyiladigan non *qara etmak deb nomlangan* (DLT, 400); *churek-kulcha*; DLT da ham *churak* shaklida ifodalangan (DLT, 156); *tog'ram*-non burdasi, u *suqum* deb ham yuritiladi; *bal-bol*, asal; *bekmesh-qiyom*, shinni turkmancha, "Attuhfa" da *bakmaz* (57); "Devon" da *bekmas/ bekmis* (o'g'uzcha) tarzida ifodalangan (183); *yupqa etmek-yupqa*, DLT da ham *yupqa* (334) deb nomlangan.

**Ichimliklar:** Suv; *bor*-may, yana bir ma'nosi shaharlarda matolarning ustiga surtiladigan bir turli oq kesak, bo'r. DLTda *bor* (*bo'r*)-bo'za. Maqolda shunday kelgan: *Bor bolmadip sirkä bol*. Ma'nosi: *Sharob bo'lmay tirib, sirka bo'lma*. Bu maqol o'zini qarilarga o'xshatadigan yoshlarga qarata aytiladi (DLT, 364); *suchu*-bu ham mayni ifodalaydi. Yana har bir shirin narsa; DLT da *süçig* (*suchig*)-sharob, musallas, may ma'nosida ifodalangan (DLT,163); *chaqir*-bu ham may; mo'g'ulcha. shag'ir (may). "Devon" da 2 xil ma'noda, *Çağır* (*chag'ir*)-sharbat ma'nosi, shuningdek, ichkilik, may ma'nosi ifodalangan (DLT.146).

Ularda yana boshqa ichimlik borki, u qamishning boshog'iga o'xshash o'simlikni eritilgan asalga qo'shib achitishdan hosil bo'ladi Uning nomi *qumlaq*dir. Bu ichimlik mast qilishda uzum sharobiga qaraganda o'tkirroqdir va shuning uchun uni afzal ko'radilar. Ularda yana xurmo va boshqa narsalardan tayyorlanadigan, arablarning mizribiga (tariq va boshqa donlardan tayyorlanadigan pivoga o'xshash ichimlik) o'xshagan ichimlik ham bor, uni *boze* deb ataydilar.

**Sut va undan tayyorlanadigan narsalar:** *Orun* (*urun*) -umuman sut (qatiq, ayron); *yag'urt*-qatiq; "Attuhfa" da *qatiq* – qatiq; *ayran*-ayron; "Attuhfa" da *ajrar* – ayron ( 316-12. 156-bet); sut-yangi sog'ilgan sut. DLT da *süt* (sut)- sut (364), "Attuhfa" da *so't* – sut (13a-11); *chig'it*-pishloq, uni *yurumchek*, *benir* deb ham yuritiladi. Benir turkmancha bo'lib, fors tilidagi penir so'zidan olingan. DLT da *uditma* (uditma)- suzma, yangi panir (pishloq) (71); *Qurut*-qurt, suzma. Yana ularda suzmadan tayyorlanib, tozalangan molning qornida saqlanadigan narsalari bor. Uni pichoq bilan kesib ishlatadilar. U anor donidan ham nordonroq bo'lib, uni qara qurut ya'ni qora qurt deyilar; "Attuhfa" da *qurut* pishloq, sut bilan pishirilsa bo'tqa bo'ladi. Bu quritilgan qatiq demakdir (16); *kere yag'*-qaymoq; *sayag'*-sariyog', maska; DLT da *sağ* (375); turaq-turoq turkmancha taom nomini ifodalaydi.

Turli narsalarning nomi va ularning zidi haqida yigirmanchi faslda ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, leksemalar orasida gastronomik birliklarni ham uchratdik: *suchu* -suchuk, shirin; uzumdan ishlangan mayga ham aytiladi, suchukni yana *tatlu* deyiladi. *Tat*-har bir narsaning mazasi, ta'mi; DLT da har bir shirin narsaa *süçig* (*suchig*) (DLT. 163) deb nomlangan; shirinining aksi achchiq, asarda *achi* shaklida berilgan, uni *qirraq* ham deyiladi, bu bir lahjadir. Uni *ag'u* ham deyiladi, *og'u* zahar ma'nosida bo'lib, o'ta achchiq bo'lganlii uchun aytiladi; *ekshi*-turkmancha nordon ma'nosini ifodalaydi.

Muallif o'z asarida ko'proq qishloq aholisini ko'zda tutib, "asl qipchoq tili" ga e'tibor berganligini ta'kidlaydi. Boshqa tillardan kirgan bir qator so'zlarga belgi (pometa) lar keltiradi.

Bunday pometalardan "turkmancha"; "forscha"; turkmancha forschadan olingan belgili so'zlar; arabcha va rumcha, mo'g'ulcha belgili so'zlarga kiruvchi so'zliklarni ifodalagan.

Yuqorida gastronomik birliklar qatorini tashkil etuvchi guruhlar tarkibiga kiruvchi boshqa tillardan kirgan belgili so'zlar quyidagicha ifodalangan:

*Turkmancha belgili so'zlar:* ayva (behi, 7-16), armut (nok, 7-15), ekshi (nordon, 27,12), bekmesht (qiyom, shinni, 16-2), gulab (gulob, 8-17), yumurda (tuxum, 10-16), keshur (sabzi, 8-15), nar (anor, 7-19), saru orik (o'rik, 7-17), tulu (no'xot, 5-9), turaq (taom nomi, 16-18), qavun (qovun, 8-11), 9-bet

*Turkmanchadan, forschadan olingan belgili so'zlar:* alu-olxo'ri, 7-16; zardalu – o'rik, 10-bet

*Forscha belgili so'zlar:* anar-anor, 7-20, badam-bodom, 8-3; xurma -xurmo, 8-2; shorba-sho'rva, 15-15 v.b 10-bet

Ba'zi so'zlar forsiy tildan olinganligi ko'rsatilgan: *benir* (pishloq) turkmancha bo'lib, forscha penirdan olingan, 16-13; *nar* (anor), bu so'z turkmancha bo'lib, asli forscha anar so'zidan olingan, 14-3; *qurma* (xurmo) asli fors tilidagi xurma so'zidan olingan, 8-2.

Muallif ba'zi o'rinda so'zlarni o'zaro qiyoslab, ularning biriga nisbatan "bir lahzaga oid" deb ko'rsatgan: *qiraq* (achchiq, 27-10) iborasi *achi* (achchiq) qa nisbatan olingan<sup>5</sup>.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi zamonaviy tillarni boyitishda "Tarjumon" ning lug'at boyligidan foydalanish juda muhim ahamiyatga ega. Inchunin, zamonaviy turk tili leksikologiyasiga e'tibor bersak, turklar undan unumli foydalangani ko'zga tashlanadi. Tadqiqotimiz doirasida o'qib-o'rganib, asarda keltirilgan birliklarni tahlilga tortib shuni aytolamizki, aynan asarning I qismi ideografik lug'at ko'rinishidadir. Mavzular ichida gastronomik birliklarning ifodalanishi ishimizni yanada boyitishga, lug'at ko'lamimizni kengaytirishga, shuningdek, asardagi birliklar zamonaviy lug'atlarda keltirilgan muqobil variantlari bilan taqqoslashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Таржумон- XIV аср ёзма обидаси". Тошкент, Фан. – 1980. 3-бет
2. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. И-ИИИ. – Т.: Фан, 1960-1963.

<sup>5</sup> O'sha manba: 11-bet.

3. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Тошкент – 1968.
4. K.Temirova.Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk asarida keltirilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari. //Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari”. – 2024. № 10. – B.46-49.
5. K.Temirova. “Sut va sut mahsulotlaridan tayyorlangan ichimliklarning lug‘atlarda ifodalanishi”// “Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari” ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2024-yil. № 2. – B.528-531.
6. K.Temirova. “Ichimlikni nomlovchi terminlar va semantik muvofiqlik”// “Xorazm Ma’mun Akademiyasi” ilmiy jurnali. – Xiva, 2024-yil. № 2. – B.182-186.